

## “GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARI TILIDA SITUATIV (TO‘QIMA) OBYEKTLARNI IFODALOVCHI ANTROPONIMLAR

**Yusupova Shahzoda**

*UrDU magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dostonlar onomastikasi bo‘yicha fikrlar bildirilgan bo‘lib, atoqli otlar tizimidagi ayrim hodisalar haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, antroponim, mifonim, real nom, noreal nom.

**Annotation:** This article encompasses opinions regarding onomastics of the dastans and clarifies some concepts related to the system of Proper Nouns.

**Key words:** Onomastics, anthroponym, mifonim, real name, unreal name.

Dostonlar onomastikasida kishi nomlari (antroponimlar) alohida guruhni tashkil etadi. Ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Dostonlardagi antroponimlar ham odatdagi nomlar kabi biror shaxsni boshqasidan farqlab, ajratib ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Ammo ular o‘zida voqealar silsilasi bilan turli etnografik, tarixiy, tarixiy-lingvistik va stilistik ma’nolarni mujassamlashtirgan. Nomlarda doston syujeti bilan bog‘liq davr, xalqlarning urf-odatlari, yashash tarzi, eski til unsurlarining ham ifodalananishini anglash qiyin emas. Ayrim hollarda doston qahramonlarini mukammalroq ta’riflash maqsadida tarixiy shaxslar nomlari, taxallus va laqablari keltiriladiki, ular hudud bilan bog‘liq voqealarni anglatishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorazm dostonlarida eng katta qismni tashkil qiluvchi kishi nomlarini mazmunan ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qismga real hayotda mavjud bo‘lgan tarixiy shaxslar bilan bog‘liq nomlarni kiritsak, ikkinchi qismga dostonlar voqealarini yuzaga chiqarishda ijrochilar tomonidan o‘ylab topilgan, to‘qima, noreal antroponimlarni kiritamiz. Quyida ana shu nuqtayi nazardan fikrlar bildiramiz. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda real va noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar (atoqli otlar) haqida quydagicha ta’riflar va sharhlar berilgan.

1. Realionim (nemischa “real”, “regal” va lotincha “realis” - narsaga oid haqiqiy) obyektiv olamda haqiqatga mavjud narsa, hodisa va obyektlar nomi.

2. Real nom – realionim.

3. Real shaxs nomi – hayotda haqiqatda yashayotgan yoki yashab o'tgan shaxsning atoqli oti. Ushbu ma'lumotlar E. Begmatov va N.Uluqovlar tomonidan nashr etilgan "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" Namangan-2006 kitobidan olingan. Ammo shu va shunga o'xhash ilmiy adabiyotlarda noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar xususida yetarlicha sharhlar va ma'lumotlar berilmagan. Masalan, yuqorida tilga olingan kitobning 20-betida "afsonaviy nomlar" haqida ma'lumotlar beriladi: "moddiy olamda real mavjud emas, ammo xayolan mavjud deb hisoblanuvchi obyektlar (hayvonlar, narsa va hodislar, shaxslar) atoqli oti"<sup>86</sup>. Shundan so'ng "afsonaviy toponomilar", "afsonaviy shaxs(lar) nomi" kabi atamalar sharhlangan bo'lsa, 47-betda "mifik nom", "mifonim", "mifologik obrazlar nomi", "mifotoponim" va boshqa atamalar sharhlangan. Biroq "mif" so'zi "afsona" so'ziga mos kelishini esga olgan holda, yuqoridagi atamalar sharhiga diqqatni qaratsak, "afsonaviy nom" bilan "mifonim" atamasi mantiqan bir narsa yoki tushunchani anglatishi mumkin. Ammo asarda mifik nomlar sharhida: "mifonim" – (yunoncha "mifos" – afsona, ertak; + "onoma" – atoqli ot) afsonalar, epopeyalar, ertaklarda uchraydigan atoqli otlar<sup>87</sup> deya ta'rif berilgan. Bu sharhdan kelib chiqadigan bo'lsak, afsona, ertak, dostonlarda uchraydigan har qanday nom "mifik" nom atamasi ostiga birlashaveradimi? Axir, afsona va rivoyatlar, doston va epopeyalarda uchraydigan nomlar orasida real obyekt va hodisalarni ifodalovchi atoqli otlar ham mavjud emassi?! Ularni ham "mifik nom"lar toifasiga kirtsak, mantiqiylik va atamalar sharhidagi izchillikka, bizningcha, putur yetadi. Shu sababdan, ushbu hodisani o'rganar ekanmiz, Xorazm dostonlari leksikasida atoqli otlarni biz real va noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar deb atash tog'riroq degan fikrga keldik. Ilmiy adbiyotlardagi nomutanosiblikni biz o'zimizning ilmiy xulosalarimizga tayangan holda, yoritishga harakat qilish niyatidamiz. Biz ushbu maqolada Xorazm dostonlari tilida qo'llanilgan afsonaviy, mifik nomlarni emas, kundalik hayotda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan, oddiy xalq orasidan chiqqan kishilarning nomlarini tahlil va tadqiq qilishni maqsad qilganimiz. Bunday nomlarni yarim odam, yarim dev, bir yumalab qushga aylanib uchib ketishi mumkin bo'lgan obyektlar nomidan farqlash unchalik ham qiyin bo'lmaydi. Bizning nazarimizda utilayotgan nomlarning egalari doston voqealarining yuzaga chiqishi asnosida vaziyat talabi bilan baxshi yoki jirovning bilimi, saviyasi, so'zamolligi natijasida dostonning ta'sirchanligini oshirish uchun o'ylab topilgan kishilar hisoblanadi. Bunday nomlar tipiga **Ayyori Munhiy**

<sup>86</sup> Begmatov E. Uluqov N. O'zbek onomastik terminlarining izohli lug'ati. Namangan. 2006. 20-bet.

<sup>87</sup> Begmatov E. Uluqov N. O'zbek onomastik terminlarining izohli lug'ati. Namangan. 2006. 47-bet.

(Oshiqnoma-1, 153-b), **Adigo** (Oshiqnoma-1, 199-b), **Alakay mahram** (Oshiqnoma-1, 237-b), **Anjum pari** (Oshiqnoma-2, 361-b), **Ashur Mirshab** (Go'ro'g'li-2, 257-b), **Badrustam** (Go'ro'g'li-1, 149-b), **Bozirgon** (Go'ro'g'li-1, 354-b), **Buldur Qassob** (Go'ro'g'li-1, 112-b), **Vali do'nik** (Go'ro'g'li-1, 438-b), **Go'ro'g'li** (Go'ro'g'li-1, 106-b), **Gulnahor** (Oshiqnoma-4, 17-b), **Dastagul** (Oshiqnoma-4, 47-b), **Zaynol kampir** (Go'ro'g'li-1, 370-b), **Zulfizar** (Go'ro'g'li-2, 201-b), **Kajangsho** (Go'ro'g'li-1, 169-b), **Kamandayyor** (Oshiqnoma-2, 324-b), **Kenjaboy ko'sa** (Oshiqnoma-1, 170-b), **Mirg'zdali** (Oshiqnoma-3, 112-b) kabilarni kiritish mumkin. Yuqorida tilga olinayotgan antroponomlarning katta qismi o'zlashgan qatlamaga oid birliklar asosida yuzaga kelgan. Quyida ana shu nomlarning ayrimlarining lisoniy-semantik xususiyatlariiga to'xtalamiz. **Ayyori Munhiy.** Ushbu nom "Oshiqnoma" turkumining 1-kitobidan o'rinni olgan "Roi Chin" dostonida qo'llanilgan. "Ushbu vaqtida ayyori Munhiy degan hozir erdi, kelib Rom soniy podshohig'a xabar berdi"<sup>88</sup>. Mazkur nom tarkibidagi elementlarning semantik xususiyatlardan ham ma'lum bo'lib turibdiki, nom salbiy ottenkaga ega. Dostonlar tilida qo'llaniladigan bunday nomlarning o'ziga xos uslubiy vazifalari mavjud.

**Kamandayyor.** Xuddi shunday salbiy ottenkasi bo'rtib turgan situativ antroponimlardan biri Kamandayyor onomastik birligi sanaladi. "Oshiqnoma" turkumining 2-kitobidan o'rinni olgan "Xiromon pari" dostonidan olingan quyidagi parchada ana shu nomning ishtirok etganligini ko'ramiz: "Ammo ajal g'oyibi diydor, g'oyibi nasib degan so'z bordur. Ersa Shamshod shahrinda bir ayyor bor erdi. Bul noinsofning odina Kamandayyor der erdilar"<sup>89</sup>. Har ikkala nom tarkibidan o'rinni olgan "ayyor" komponenti mazkur nomlarning semantikasiga salbiy ma'no qirralarining qo'shilishiga olib kelgan deb hisoblash to'g'riroq bo'ladi. Chuki **ayyor** leksemasi o'zbek tilining izohli lug'atida "Arab tiliga oid birlik. Asl ma'nosida mug'ambir, yalangoyoq, bekorchi. Makr-hiyilaga usta, mug'ambir, firibgar" deya sharhanadi<sup>90</sup>. Shunday ekan mazkur birlik ishtirok qilgan onomastik birlikning ham salbiy semantikaga ega bo'lishi lisoniy qonuniyat deb qarashga asoslar mavjud. **Adigo//Adiga.** Xorazm dostonlari tilida shunday nomlar uchraydiki, ularni hech bir tilning leksik qatlamiga oid deb qarash mumkin emas. Chunki bunday nomlar situativ holatda, to'satdan yuzaga kelayotgan voqealarda ro'yobga chiqadi va onomastik birlik funksiyasini bajarishga o'tib ketadi. **Adigo** antroponimini xuddi ana shunday xarakterga ega bo'lgan

<sup>88</sup> Ошиқнома. 1-китоб. Нашрга тайёрловчилар: Рўзимбоев С.Р., Эшчонова Г.О., Рўзимбоев С.С. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2006. – Б. 153

<sup>89</sup> Ошиқнома. 2-китоб. Нашрга тайёрловчилар: Рўзимбоев С.Р., Эшчонова Г.О., Рўзимбоев С.С. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2006. – Б. 324.

<sup>90</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. –B.52

onomastik birlik deb hisoblasa bo‘ladi. Ushbu parchaga diqqatni qaratamiz: “Ko‘kgul ani ko‘rib ko‘zi qo‘rqqan, oshiq<sup>91</sup>larni etagiga solib turib qocha berdi. O‘g‘lonlar aydi: na yera borursan? Ko‘kgul olbirab: avvalki mani urg‘an bola kelur, deb aytar erdi. Birdan bolalar “adiga-adiga” der erdilar, shovqun ko‘tardilar. Shundan so‘ng Rahimberdijonning oti “**Adiga**” bo‘ldi”<sup>92</sup>.

Keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, mazkur nomning etimologik jihatlarini qidirib o‘tirishga hojat yo‘q, chunki bu nom voqealar ta’sirida yuzaga kelgan situativ antroponommdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastik terminlarining izohli lug‘ati. Namangan. 2006.
2. Ошиқнома. 1-китоб. Нашрга тайёрловчилар: Рўзимбоев С.Р., Эшчонова Г.О., Рўзимбоев С.С. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2006.
3. Ошиқнома. 2-китоб. Нашрга тайёрловчилар: Рўзимбоев С.Р., Эшчонова Г.О., Рўзимбоев С.С. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2006.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild.
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

<sup>91</sup> Qo‘yning to‘piq suyagidan olingan shashqol.

<sup>92</sup> Ошиқнома. 1-китоб. Нашрга тайёрловчилар: Рўзимбоев С.Р., Эшчонова Г.О., Рўзимбоев С.С. – Урганч: Хоразм нашриёти, 2006. – Б. 199